

UDC: 347.45/.47(045)(571.1)

TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATISH SHARTNOMASI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xursanov Rustam Xolmuratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrası dotsent
vazifasini bajaruvchisi
ORCID: 0000-0003-0706-2960
e-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabatlarni telekommunikatsiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Operator yoki provayderlar tomonidan taqdim etiladigan mazkur xizmat esa foydalanuvchi yoki abonent bilan tuzilgan shartnoma asosida taqdim etiladi. Telekommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishi va taraqqiyoti esa istiqbolda ushbu xizmatning maishiy tusdagi xizmat turidan biriga aylanishiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda telekommunikatsiya xizmatlarini esa Konstitutsiya darajasida belgilash va shu orqali fuqarolarning telekommunikatsiya tarmoqlari, xususan, internetdan foydalanish huquqini kafolatlash taklif etilmoqda. Bu holat telekommunikatsiyalar va uning bir ko'rinishi bo'lgan Internet tarmog'ining nechog'li ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda ushbu xizmatlarni ko'rsatishning shartnomaviy-huquqiy tartibga solinishini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish, mazkur shartnomaning yuridik tabiati va xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: telekommunikatsiya, shartnoma, huquq, majburiyat, bitim, operator, provayder, aralash shartnoma, abonent, buyurtmachi, ijrochi, xizmat, qonun, normativ-huquqiy hujjat, axborot, axborot xizmati, axborot almashinuvi, Internet tarmog'i, telekommunikatsiya xizmatlari, konvensiya, telekommunikatsiya tarmog'i, internetdan foydalanish, fuqarolik qonunchiligi.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ОСОБЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДОГОВОРА ОБ УСЛУГАХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЙ

Хурсанов Рустам Холмуратович,
и. о. доцента кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. На сегодняшний день формирование социальной жизни, экономических отношений не представляется без телекоммуникаций. Данная услуга предоставляется оператором или провайдерами на основании договора, заключенного с пользователем или абонентом. Прогресс и развитие телекоммуникационных услуг в перспективе может привести к превращению данной услуги в один из видов сервиса бытового характера. Предлагается телекоммуникационные услуги в Узбекистане закрепить на уровне Конституции и тем самым гарантировать право граждан на доступ к телекоммуникационным сетям, в частности к Интернету. Данная ситуация показывает особую значимость телекоммуникаций, в том числе и сети Интернет. В настоящее время важную роль играет научно-практическое исследование договорно-правового регулирования оказания данных услуг, раскрытие правовой природы и особенностей данного договора.

Ключевые слова: телекоммуникации, договор, право, обязательство, сделка, оператор, провайдер, смешанный договор, абонент, заказчик, исполнитель, услуга, закон, нормативный правовой акт, информация, информационная услуга, обмен информацией, сеть Интернет, телекоммуникационные услуги, конвенция, телекоммуникационная сеть, использование Интернета, гражданское законодательство.

DEFINITION AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TELECOMMUNICATION SERVICES CONTRACT

Khursanov Rustam Kholmuratovich,

Acting Associate Professor of the Department of Civil Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. The formation of social life and economic relations is not possible without telecommunications today. This service is provided by the operator or providers on the basis of an agreement concluded with the user or subscriber. The progress and development of telecommunication services in the future may lead to the transformation of this service into one of the types of household services. Telecommunications services in Uzbekistan are proposed to be established at the level of the Constitution and thereby guarantee the right of citizens to access telecommunications networks, in particular, the Internet. This situation shows the special importance of telecommunications, including the Internet. Currently, scientific and practical research on contractual and legal regulation of the provision of these services, and disclosure of the legal nature and features of this contract are of great importance.

Keywords: telecommunications, contract, law, obligation, transaction, operator, provider, mixed contract, subscriber, customer, contractor, service, law, regulatory legal act, information, information service, information exchange, Internet, telecommunication services, convention, telecommunication network, Internet use, civil legislation.

Kirish

Ijtimoiy munosabatlar, xususan, xizmat ko'rsatish sohalarining raqamlashuvi, masovafiy shartnoma tuzish, aqli shartnomalar orqali xizmat ko'rsatilishini ta'minlash, huquqiy munosabat subyekti sifatida smart texnologiyalarning qo'llanilishi huquqiy tartibga solishga nisbatan yangi chaqiriq va talablarni yuzaga keltirdi. Bu esa huquqiy tasavvur va qarashlar, mavjud huquqiy doktrina va qoidalarni tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni vujudga kelayotgan yangi munosabatlarga moslashtirish hamda istiqbolda qo'llaniladigan huquqiy tartibga solish mexanizmlari borasidagi bilimlarni shakllantirishni taqozo etadi. Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishni shartnomaviy tartibga solish ham mazkur omillardan kelib chiqib, yangicha yondashuv ishlab chiqishni talab qiladi.

Material va metodlar

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, tegishli taklif va xulosalarga kelindi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Amaldagi qonunchilikda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi tushunchasiga ta'rif berilmagan. Yuridik adabiyotlarda esa ushbu tushunchaning turlicha ta'riflari shakllantirilgan. Xususan, A.S. Mitarevaning fikricha, "axborot texnologiyalari sohasidagi shartnoma – bu taraflarning tijorat qiymatiga ega bo'lgan axborotni egallash, foydalanish va uzatishga taalluqli fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga

oid kelishuvdir” [1, 376-b.]. N. Ganiyevning ta’kidlashiga ko’ra, “telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish shartnomasi deganda, telekommunikatsiya kompaniyasi texnik imkoniyat mavjud bo’lganda murojaat qilgan har qanday shaxs (mijoz)ga telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish majburiyati, mijoz esa ushbu xizmatlar haqini to’lashni zimmasiga oladigan shartnoma tushuniladi” [2, 18-b.]. Ukrainalik mutaxassis O.A. Bogutskiyning qayd etishicha, telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish shartnomasi deganda, operatorning foydalanuvchi uchun belgilar, tasvirlar, tovushlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash, uzatish maqsadida telekommunikatsiya tarmog’idan foydalanish imkoniyatini yaratish hamda davlat va sohaviy standartlarda belgilangan tegishli sifatini ta’minlash bo’yicha majburiyatni zimmasiga oladigan shartnoma tushuniladi [3, 9-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Fikrimizcha, yuqorida keltirib o’tilgan ta’riflardan O.A. Bogutskiy tomonidan taklif etilgan telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish shartnomasi tushunchasi ancha keng va xizmatning mazkur turi keng qamrab olishi bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan, telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish shartnomasiga ta’rif berishda xizmatning ushbu turiga xos bo’lgan barcha jihatlarni qamrab oluvchi tushunchani shakllantirish bir qadar murakkabligiga e’tibor qaratish lozim. Shu bois ayrim mualliflar [4, 23-32-b.] telekommunikatsiya xizmatlarining barcha jihatlarini qamrab oladigan shartnoma konstruksiyaga oid qoidalarini shakllantirish maqsadga muvofiqligini ta’kidlashadi. Bizningcha, bu vaziyatda “yagona telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish shartnomasi” konstruksiyasini shakllantirishda taraflar zimmasidagi asosiy majburiyatlarni belgilab olish muhimdir. Bunda operator – shartnomaning majburiy subyekti sifatida foydalanuvchini tarmoqqa ulash va unda axborotga oid qonunchilikda taqiqlanmagan barcha harakatlarni

amalga oshirish uchun sifatli muhit yaratish majburiyatini zimmasiga olishi kerak. Chunki telekommunikatsiya tarmog’i – “uzatishlarning bir yoki bir necha turi: telefon, telegraf, faksimil turlari, ma’lumotlar uzatish va hujjatli xabarlarining boshqa turlari, televizion va radioeshittirish dasturlarini translatsiya qilishni ta’minlovchi telekommunikatsiya vositalarining majmui” (“Telekommunikatsiyalar to’g’risida”gi Qonunning 3-moddasi).

Telekommunikatsiya xizmati shartnomasi o’zining huquqiy tabiatiga ko’ra axborot almashinuvi va harakatlanishini amalga oshirish imkonini beruvchi tarmoqni taqdim etishni nazarda tutishi bilan turdosh shartnomalardan farq qiladi. Ayni paytda mazkur shartnomani aloqa xizmati shartnomasining bir turi sifatida talqin etish holatlari ham uchraydi [5, 145-b.]. Jumladan, L.B. Sitdiko-va “Internet” tarmog’i orqali axborotni uzatish – axborot internet-xizmatini ko’rsatish shartnomasi orqali amalga oshirilishi, chunki bu holatda shartnoma predmeti axborot hisoblanishini ta’kidlaydi [6, 46-b.]. Shunga qaramasdan, ayrim mualliflar [7, 39-b.] telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish, shu jumladan, Internet orqali telekommunikatsiya xizmati ko’rsatishning axborot xizmatidan farqlari mavjudligi, axborot xizmati telekommunikatsiya xizmatlari orqali amalga oshirishini e’tirof etishadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari, odatda, buyurtmachi topshirig’iga ko’ra ijrochi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlardan iborat. Bu holatda telekommunikatsiya xizmatlari FKning 703-moddasida nazarda tutiladigan faqat harakatni amalga oshirishni emas, balki natija topshirilishini ham nazarda tutishi mumkin. Masalan, provayder tomonidan buyurtmachini tarmoqqa ulash, buning uchun tegishli uskunani o’rnatish hamda sifatli telekommunikatsiya tarmog’ini hosil qilish lozim. Zero, telekommunikatsiya xizmati – bu bir shaxsning ikkinchi shaxs buyurtmachi asosida axborotni qabul qilish, qayta ish-

lash va uzatish bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi [8, 78-b.].

Telekommunikatsiya xizmatlari haq evaziga xizmat ko'rsatishning boshqa turlaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Xususan, haq evaziga xizmat ko'rsatishning an'anaviy turlari bo'lgan turizm, mehmonxona, tibbiy xizmatlar uchun xos bo'lgan taqdim etiladigan xizmatning saqlanib turmasligi qoidasi telekommunikatsiya xizmatlarida namoyon bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, telekommunikatsiya tarmog'i orqali uzatilgan tasvirlar virtual "hamyon"da saqlanishi yoki tegishli saytda to'planib, "big data" hisol qiladi va bu ma'lumotlar cheklanmagan muddatda saqlanadiki, ijrochi istalgan paytda ulardan foydalanishi mumkin [9, 3-b.]. Shu sababli telekommunikatsiya xizmatlari – bu, avvalo, foydalanuvchini tarmoqqa ulash orqali unga axborotni almashish muhitini yaratishda ifodalanadi. Masalan, provayder tomonidan abonent Internet tarmog'iga ulanib, unga shartnomada kelishilgan trafik berilgach, abonent shu trafik doirasida axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi harakatlarni o'zi mustaqil amalga oshira oladi. Bunda operator trafik doirasida yaratilgan Internet sifatli va shartnomada belgilangan tezlikda ishlashi uchun o'zining texnik imkoniyatlari va uskunalari orqali ta'minlashi lozim. Jumladan, axborotni muayyan elektron manzilga yuborish, o'zining elektron manziliga kelib tushgan axborotni qabul qilib olish va qayta ishlash (yuklab olish, boshqa manzilga o'tkazish, o'chirib tashlash) orqali ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlarini qabul qilgan hisoblanadi. Ayni paytda telekommunikatsiya xizmati ko'rsatuvchilar – provayder va operatorlar shartnoma doirasida abonentning tarmoqda bo'lishi hamda axborot almashinuvining barcha imkoniyatlaridan foydalana olishini ta'minlashlari talab etiladi. Shuningdek, Internetning rivojlanishi bilan telekommunikatsiya xizmatlarini olishdan maqsad nafaqat kishilar o'rtasidagi "aloqa"ni o'rnatish, balki axborot

olish imkoniyati, ya'ni telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, Internet tarmog'iga ulanish hisoblanadi. Qolaversa, hozirgi kunda texnik hamjamiyat "IoT" (Internet of the Things – "Internet ashyo") ustida ish olib bormoqdaki [10, 111-b.], bu tushuncha kishilar ishtirokisiz ashyolar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvini ta'minlashni anglatadi. IoT jumlasiga elektr uskuna vositasida iste'mol qilingan energiya yoki suv hajmi to'g'risidagi axborotni uzatish xizmatlari, "aqlli uy" loyihasi va shu kabi xizmatlarni kiritish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 59-rezolyutsiyasida belgilanishicha, "axborot erkinligi insonning asosiy huquqlaridan biri va boshqa barcha erkinliklarining mezonini sanaladi". Biroq bunday erkinlik boshqalarning huquq va erkinliklarini buzmasligi lozim. "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Konvensiyaning 10-moddasida tarixiy nuqtai nazardan birinchi marotaba har kimning ommaviy axborot olish erkinligi va davlat hokimiyati organlarining axborot olish va uzatish erkinligiga aralashishi taqiqlanishi belgilangan (albatta, mazkur qoidada istisnolar ham mavjud).

Ommaviy axborot vositasi (OAV) sifatida Internet boshqa OAVlarga qaraganda axborot yig'ish, undan foydalanish va tarqatishda keng imkoniyatlarga ega [11, 16-b.]. Global Internet tarmog'i – bu cheklanmagan axborot olish imkoniyatidir. Biroq ushbu resursdan foydalanish uchun, birinchi navbatda, ushbu tarmoqqa ulanish talab etiladi. Buning uchun esa operator yoki provayder bilan telekommunikatsiya xizmati ko'rsatish shartnomasi tuzish lozim. Shundan so'nggina foydalanuvchi Internet tarmog'idagi ma'lumotlar bilan "ishlash" imkoniyatiga ega bo'ladi.

Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi o'zining tabiatiga ko'ra, buyurtmachi foydasiga muayyan xatti-harakat yoki faoliyatning amalga oshirilishini ifodalaydi. Bunda ijrochi buyurtmachini tarmoqqa ulash,

mazkur tarmoq orqali axborotning harakatlanishi va saqlanishini ta'minlash kabi harakatlardan iborat majburiyatlarni zimmasiga oladi. Buyurtmachi zimmasida esa ijrochi uchun muayyan natija sifatida axborot almashinuvi tezligi, masalan, Internet tezligiga oid texnik parametrlarni ta'minlash vazifasi turadi. Natijani taqdim etishga oid bo'lgan boshqa jihatlar telekommunikatsiya xizmati shartnomasining predmeti tarkibiga kirmaydi.

Yuridik adabiyotlarda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining mohiyati borasida bir qator fikrlar bildirilgan. Jumladan, R.N. Morodumovning yozishicha, "telekommunikatsiya shartnomalari bo'yicha mazmunan umumfoydalanishdagi, barcha uchun ochiq bo'lgan yoki ma'lumotlar bazasi egasining huquq obyekti bo'lgan (qoidaga ko'ra, mualliflik yoki tijorat siriga bo'lgan huquq) muayyan hajmdagi axborot olish uchun imkoniyat taqdim etiladi" [12, 133-b.]. Fikrimizcha, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi mazmunini faqat axborot olish va uni qayta ishlash imkoniyatini taqdim etish tashkil etmaydi. Chunki bunday imkoniyatni taqdim etish uchun buyurtmachini tarmoqqa ulash va tarmoq ishlashi uchun tegishli texnik xizmatlar ko'rsatish lozim. Bu esa, o'z navbatida, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining kompleks tusini ko'rsatadi. Masalan, mutaxassislar [13, 117-b.] telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining bir turi bo'lgan provayderlik shartnomasini aralash shartnoma sifatida e'tirof etishadi.

S.M. Kovalev va A.V. Sergeyevlarning fikricha, provayderlik shartnomasi bo'yicha ikki turdagi xizmatlar ko'rsatiladi: 1) aloqa xizmatlari. Bunda mijozning kompyuteri provayder serveriga ulanishi ta'minlanadi. O'z navbatida, provayderning serveri orqali mijozning kompyuteri tarmoqda ishlayotgan boshqa kompyuterlar bilan ulanadi; 2) axborot xizmatlari. Provayder axborot xizmatlarini mijoz uning serveridagi ma'lumotlarni (masalan, tarmoqning ishlar vaqti to'g'risi-

dagi statistik ma'lumotlar) olganidan so'ng ko'rsatishi mumkin. Agar abonent boshqa serverdagi ma'lumotlardan foydalansa, provayder faqat o'sha ma'lumotlarni olish imkoniyatini taqdim etadi, xolos [14, 5-b.].

Bizning nazarimizda, provayderlik shartnomasi mohiyatini provayder atamasining ma'nosi va u tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar mazmunidan kelib chiqib talqin etish o'rinlidir. Ma'lumki, internet-provayder yoki provayder so'zi – ingliz tilidagi "internet service provider" so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbek tilida "internet xizmatlari ta'minlovchisi" ma'nosini anglatadi. Provayder Internetga ulanish hamda Internet orqali boshqa xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradi. Abonent va provayder o'rtasida tuziladigan shartnoma mazmunida abonentni Internet tarmog'iga ulash, Internetdan foydalanish uchun tegishli tezlik va sifatni taqdim etish hamda bir oy muddat mobaynida undan uzluksiz foydalanishni ta'minlash yotadi. Shu sababli provayder xizmatini ko'rsatish shartnomasini kompleks tusdagi va bir paytning o'zida bir nechta turdosh bo'lgan xatti-harakatlarni qamrab olishini e'tirof etish mumkin. Bu o'rinda turdosh xatti-harakatlar deyilganda, turli shartnomalarning predmetini tashkil etadigan harakatlar xususida so'z ketmoqda. Chunonchi, abonentni internet tarmog'iga ulash ish bajarish, ya'ni natijani hosil qiladigan harakatlar pudrat munosabatlarning obyekti hisoblansa, abonentning tarmoq orqali axborot olish va qayta ishlashini ta'minlash haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining predmetini tashkil etadi. Shu sababli ham telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining bir turi bo'lgan provayderlik shartnomasi aralash shartnoma sifatida e'tirof etiladi.

Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, xizmat ko'rsatish shartnomalari guruhiga kiradi. Fuqarolik kodeksi (FK)ning 37- va 38-boblarida xizmat ko'rsatish munosabatlarini tartibga solishga oid qoidalar belgi-

langan. Bunda qonun chiqaruvchi ish bajarish – bu natijani topshirish, xizmat ko'rsatish – muayyan faoliyatni amalga oshirish yoki harakatlarni bajarish sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida qabul qilingan Model FKga tayanadi hamda xizmatlar sohasi uchun yaxlit va umumiy konsepsiyani ifoda etmaydi [15, 47-b.]. Aniqroq aytganda, FK xizmat ko'rsatish munosabatlari va ularning alohida turlari uchun umumiy qoida va asosiy talablarni nazarda tutmaydi. Konseptual jihatdan FKdagi mazkur yondashuvni tanqid qilishga muayyan asos bor, albatta. Chunki FK oldi-sotdi shartnomalari (29-bobning 1-paragrafi), mulk ijarasi shartnomasi (34-bobning 1-paragrafi) pudrat shartnomasining (37-bobning 1-paragrafi) umumiy qoidalarini belgilaydi. Bundan farqli ravishda xizmat ko'rsatish munosabatlarining alohida turlari uchun umumiy qoidalar nazarda tutilmaydi. Balki, bu yondashuv uchun asos xizmat ko'rsatish munosabatlarining pudrat shartnomalaridan ajralib chiqqan huquqiy konstruktsiya ekanligi bilan ham bog'liqdir. Qolaversa, FK xizmat ko'rsatish (xususan, haq evaziga xizmat ko'rsatish) munosabatlari nisbatan pudrat qoidalari qo'llanilishini nazarda tutganligi (708-modda) ham xizmat ko'rsatish munosabatlari uchun umumiy qoidalarni belgilash zaruratini yo'qqa chiqarar. Nima bo'lganda ham xizmat ko'rsatish, xususan, telekommunikatsiya xizmatlari FK nuqtai nazaridan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari guruhiga mansubdir. Bu holatni FKning 703-moddasi 2-qismida axborot xizmati haq evaziga xizmat ko'rsatishning bir turi sifatida sanab o'tilganligi bilan izohlash mumkin. Lekin tom ma'noda "telekommunikatsiya xizmati"ni axborot xizmatining bir turi sifatida e'tirof etish masalasi hali yuridik fanda to'liq o'z yechimini topmagan. Zero, telekommunikatsiya xizmatining aralash tusi, ashyoviylik belgisi, natijaning topshirilishi kabi jihatlari pudrat shartnomasiga xos bo'lgan elementlarni ifoda etadi.

Yuridik adabiyotlarda telekommunikatsiya shartnomalari tushunchasini talqin etishda asosiy e'tibor axborot va u bilan bog'liq "muomala"ga asosiy e'tibor qaratiladi [16, 214-b.]. Biroq ayrim mutaxassislar "telekommunikatsiya xizmatlari"ni shunchaki aloqa qilish vositalarini o'rnatishga oid munosabatlar sifatida ta'riflashadi. Masalan, K.A. Guzanovning fikricha, "telekommunikatsiya xizmatlari" shaharlararo, ichki zonal va xalqaro telefon aloqasi, shahar va qishloq joylarida mahalliy telefon aloqasi, hujjatli elektron aloqasi, radio aloqa, radio eshittirish, televideniye, yo'ldosh aloqasi, simli eshittirish va ko'rsatuvlarni efirga uzatish, ko'chma aloqa ko'rinishidagi elektron aloqaning radioelektron vositalaridan foydalanishda ko'rsatiladigan elektron aloqa xizmatidir" [17, 8-b.]. Fikrimizcha, mazkur ta'rifda telekommunikatsiya uchun eng muhim tusga ega bo'lgan "axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash" kabi jihatlar o'z ifodasini topmagan. K.A. Guzanov tomonidan taklif etilgan ta'rifda telekommunikatsiya xizmatlari – tarmoqqa abonent ulashdan iboratligi anglashiladi. Bundan keyingi ijrochining harakatlari esa ushbu ta'rifda nazarda tutilmaydi. Bizningcha, telekommunikatsiya xizmatlari abonentga tegishli qurilmani tarmoqqa ulashga tayyorgarlik ko'rish (tegishli router yoki Wi-Fi moslamasini o'rnatish), abonent qurilmasini tarmoqqa ulash va uni tarmoqda bo'lishini ta'minlash, tarmoq orqali axborotni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash uchun imkoniyat yaratish harakatlaridan iborat. Aynan mazkur harakatlar va jihatlar telekommunikatsiya shartnomasining mohiyatida yotadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining muhim jihatlaridan biri abonentning ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatiga egaligidir. Masalan, Internetdan foydalanishda hamma uchun ochiq ma'lumotlar bazasidan abonent istalgancha foydalanishi hamda unda axborotni o'z kompyuteri yoki telefoniga ko'chirib olishi mumkin. Bundan tashqari, tegishli banklar tomonidan

taqdim etiladigan xizmatlar haqidagi axborot, mijozning kredit tarixi haqidagi bank tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar bazasidagi axborot, garov reyestrtdagi ma'lumotlar, tegishli ko'chmas mol-mulk haqidagi kadastr xizmati tomonidan taqdim etiladigan axborot va shu kabilar bugungi kunda Internet tarmog'i orqali olinishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlar, yuqoridagi ta'kidlanganidek, tarmoq foydalanuvchilari tomonidan bir-biriga uzatiladigan axborotlar emas, balki ma'lumotlar bazasi sifatida shakllangan axborotlar sanaladi. Ma'lumotlar bazasi hisoblangan ushbu axborotlarni telekommunikatsiya tarmoqlari orqali olish esa foydalanuvchi tomonidan tegishli dasturlarni o'z qurilmasiga o'rnatish, ilovani yuklab olish yoki tegishli tartibda saytdan ro'yxatdan o'tish orqali amalga oshiriladi. Mazkur holatda abonent va provayder o'rtasidagi ma'lumotlar bazasidan foydalanib, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi tuzilishi mumkin. Ma'lumotlar bazasidan foydalanib, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi bo'yicha axborot taqdim etish usuliga qarab quyidagilar ajratilishi mumkin:

1. Telekommunikatsiya tizimlari operatori tomonidan iste'molchi yoki telekommunikatsiya vositachisi uchun zaruriy axborotni taqdim etish. Ushbu usul cheklangan doiradagi axborotni taqdim etish uchun xosdir, masalan, kredit tarixi to'g'risidagi axborot.

2. Axborot iste'molchisi axborot terminalidagi ma'lumotlar bazasidan zaruriy axborotni izlash bo'yicha operatsiyalarning ko'p qismini mustaqil bajaradi [18, 11-b.].

Ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatini taqdim etish nafaqat ushbu bazadagi ma'lumotlar bilan tanishish va ularni yuklab olish, balki ushbu axborotni uzatish va qayta ishlashni ham nazarda tutishi mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchi uchun telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ma'lumotlar bazasidan axborotni izlash (masalan, muayyan kataloglar, elektron qidiruv tizimlari) imkoniyatini taqdim etish ham telekom-

munikatsiya xizmati ko'rsatish shartnomasi orqali amalga oshiriladi. Qolaversa, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasida keng ko'lamlı axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratiladi. Shu sababli telekommunikatsiya xizmati ko'rsatish shartnomasining mohiyatida axborot bilan bog'liq harakatlarni muayyan tarmoqda amalga oshirish imkoniyatini taqdim etishga oid harakatlar yotadi.

Telekommunikatsiya shartnomasining ta'rifi amaldagi qonunchilikda ifodalanmagan. Buning o'rniga qonun chiqaruvchi telekommunikatsiya shartnomalarining alohida turlari ta'rifini berishga harakat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son buyrug'iga 1-ilova "Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish qoidolari"da (Qoidalar) telekommunikatsiya xizmatining turlari bo'lgan telefon aloqasi, telegraf aloqasi, internet xizmatlari ko'rsatish, mobil aloqa xizmatlari, rouming xizmati shartnomalarining tushunchasi belgilangan.

Umumiy ma'noda qonunchilikda ifodlangan "telekommunikatsiyalar xizmatlari" tushunchasi asosida telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatish shartnomasining ta'rifini shakllantirish mumkin. Bunda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi bo'yicha bir taraf operator va provayder; ikkinchi taraf abonentning topshirig'iga ko'ra, signallar va boshqa axborotni tegishli tarmoq orqali qabul qilish, uzatish va qayta ishlashga oid faoliyatni amalga oshirish, abonent esa buning uchun belgilangan haq to'lash majburiyatini oladi. Zero, signallarni uzatish muayyan qurilmalar orqali amalga oshiriladi va telekommunikatsiya tarmoqlaridagi asosiy harakatlanuvchi vosita sanaladi. Shu sababli telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasida axborot bilan birga signallarni qabul qilish va uzatish harakati ham amalga oshiriladi. Buning uchun esa operator yoki

provaydarning serveri yoki qurilmasi orqali yuborilgan signallarni foydalanuvchi abonentning qurilmasi “o’qiy olishi” va foydalanuvchi uchun tushunarli tilga o’girishi talab etiladi [19, 372–374-b.].

Ta’kidlash lozimki, telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatishning asosiy yo’naliishi – bu Internet bilan bog’liqdir. Telekomunikatsiya xizmatlarining telefon aloqasi, telegraf aloqasi, mobil aloqa kabi xizmat turlariga qaraganda Internet xizmati ko’rsatish yo’naliishi juda keng tarqalgan va shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Istiqbolda esa hozir amalda bo’lib turgan telekommunikatsiya xizmatlarining muayyan turlari (masalan, telegraf xizmati) o’rniga ham Internet bilan bog’liq telekommunikatsiya xizmatlari qo’llanilishi va ayrim telekommunikatsiya xizmatlarini bozordan siqib chiqarishi mumkin. Shu sababli bugungi yurisprudensiya fani ham telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish munosabatlarini tadqiq etishda asosiy e’tiborni Internet bilan bog’liq xizmatlarni ko’rsatishga qaratishi lozim.

Xulosalar

Yuqorida ta’kidlanganidek, Internetdan foydalanish imkoniyati telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish orqali yuzaga keladi. Bunda operator yoki provayder foydalanuvchi uchun muayyan Internet xizmatlari paketini taqdim etadi va shu paket hajmi doirasida foydalanuvchining Internet orqali axborotni almashish imkoniyatini yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, Internetdan foydalanish tele-

kommunikatsiya xizmatlari ko’rsatishning hosilasi sanaladi. Masalan, Internetdan foydalanayotgan shaxs bu jarayonda muammolarga uchrasa, dastlab operator yoki provayderga murojaat qiladi hamda undan muammo va nosozliklarni bartaraf etishni talab qiladi. Chunki foydalanuvchi Internetdan foydalanish uchun muayyan operator yoki provayder bilan shartnoma tuzgan bo’ladi. Qoidalarda Internetdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish va umuman Internet bilan bog’liq harakatlar umumiy tarzda “ma’lumotlar uzatish tarmog’i xizmatlari” deb nomlangan. Operator yoki provayder tomonidan ko’rsatiladigan ma’lumotlar uzatish tarmog’i xizmatlari telekommunikatsiya xizmatlarining alohida turi sifatida bir qator xizmatlar turlarini qamrab oladi va amalda ularning katta qismi Internet tarmog’i orqali ko’rsatiladi.

Telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish shartnomasi qaysi turdagi telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatilayotganidan qat’i nazar, signal va axborot uzatish tarmoqlari orqali ta’minlash harakatlarini o’zida ifodalaydi va fuqarolik-huquqiy tusdagi aralash shartnoma konstruksiyasiga mos keladi. Aynan shu jihatdan telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish shartnomasini yig’ma tushuncha sifatida e’tirof etish ham o’rinlidir. Chunki qonunchilik telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish shartnomasini emas, balki ularning alohida turlarini ifoda etadi va ularni umumiy nom ostida “telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish shartnomasi” deb nomlash mumkin.

REFERENCES

1. Mytareva A.S. Dogovor v sfere informatsionnykh tekhnologiy: ponyatiye i vidy [Contract in the field of information technology: concept and types]. *Molodoy uchenyy – Young Scientist*, 2021, no. 34 (376), pp. 143-145. Available: <https://moluch.ru/archive/376/83772/> (accessed 17.06.2022).
2. Ganiev N.V. Telekomunikatsiya xizmatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish [Improvement of civil legal regulation of telecommunication services]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021, p. 18.
3. Boguts’kiy O.A. Dogovory o predostavlenii telekommunikatsionnykh uslug [Contracts for the provision of telecommunications services]. Abstract of PhD thesis. Kyiv, 2010, 9 p.

4. Kuznetsova O.A. O pravovoy konstruksii yedynogo dogovora ob okazanii telekommunikatsionnykh uslug [On the legal structure of a single contract for the provision of telecommunications services]. *Voprosy rossiyskogo i mezhdunarodnogo prava – Issues of Russian and International Law*, 2016, no. 7, pp. 23-32.
5. Galayev A.Yu. Dogovor vozmezdnoy okazaniya informatsionnykh uslug [Contract for the provision of information services]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2009.
6. Sitdikova L.B. Normativno-pravovoye i dogovornoye regulirovaniye otnosheniy vozmezdnoy okazaniya informatsionnykh uslug [Normative-legal and contractual regulation of relations for the paid provision of information services]. Moscow, SPS ConsultantPlus, Legislation Comments, Yurist, 2007.
7. Amanov A.A. Axborot xizmati ko'rsatishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish [Improvement of civil-legal regulation of information service provision]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2018, 78 p.
8. Grigor'yeva K.V. Puti sovershenstvovaniya pravovogo regulirovaniya mezhdunarodnoy trgovli telekommunikatsionnyimi uslugami [Ways to improve the legal regulation of international trade in telecommunications services]. PhD thesis. 12.00.03. Moscow, 2005, p. 2.
9. Kiselev S.V., Shakirov M.M. Soderzhaniye, kharakteristika i klassifikatsiya telekommunikatsionnykh uslug kak ob'yekta issledovaniya [Content, characteristics and classification of telecommunication services as an object of study]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/soderzhanie-harakteristika-i-klassifikatsiya-telekommunikatsionnyh-uslug-kak-obekta-issledovaniya/> (accessed 17.06.2022).
10. Kumar S., Tiwari P., Zymbler M. Internet of Things is a revolutionary approach for future technology enhancement: a review. *Journal of Big Data*, 2019, vol. 6, no. 111.
11. Rustambekov I.R. Internet tarmog'ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari [Problems of regulating civil-legal relations on the Internet]. Tashkent, TSUL, 2017, p. 16.
12. Morodumov R.N. Dogovor vozmezdnoy okazaniya informatsionnykh i konsul'tatsionnykh uslug [Contract for the provision of information and consulting services for compensation]. PhD thesis. Volgograd, 2004, p. 133.
13. Dorokhova N.A. Dogovory ob okazanii informatsionnykh uslug: vidy i otgranicheniye ot grazhdansko-pravovykh dogovorov s informatsionnoy obyazannost'yu [Contracts for the provision of information services: types and delimitation from civil law contracts with an information obligation]. *Vestnik universiteta imeni O.Ye. Kutafina – Bulletin of the University named after O.E. Kutafin (MSUA)*, 2015, no. 10, p. 117.
14. Kovalev S.M., Sergeyev A.V. «Dver'» v kiberprostranstvo. Dogovor okazaniya provayderskikh uslug ["Door" to cyberspace. Contract for the provision of provider services]. Available at: <http://www.russianlaw.net/law/isp/a93/> (accessed 10.03.2022).
15. Narmatov N.S. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari [Problems of civil-legal regulation of entrepreneurship in the field of services]. Tashkent, 2009, 47 p.
16. Bagents D.S. Pravovoye regulirovaniye okazaniya uslug svyazi [Legal regulation of the provision of communication services]. *Uspekhi sovremennogo yestestvoznaniya – Successes of modern natural science*, 2012, no. 4, pp. 214-214. Available at: <https://natural-sciences.ru /ru/article/view?id=30011/> (accessed 08.07.2022).
17. Guzanov K.A. Pravovoye regulirovaniye deyatel'nosti po okazaniyu uslug svyazi [Legal regulation of activities for the provision of communication services]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2018, 8 p.
18. Sitdikova L.B. Diskussionnyye voprosy pravovoy prirody informatsionnykh uslug [Debating issues of the legal nature of information services]. *Russian justice*, SPS ConsultantPlus Legislation Comments, 2008, no. 9.
19. Galushkin A.A. K voprosu o perspektivakh pravovogo regulirovaniya deyatel'nosti v informatsionno-telekommunikatsionnoy seti Internet [On the issue of the prospects for legal regulation of activities in the information and telecommunication network Internet]. *Vestnik RUDN, seriya Yuridicheskiye nauki – Bulletin of the Peoples' Friendship University of Russia, series of Legal Sciences*, 2014, no. 4, pp. 372-376.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 10.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 163.
TDYU tipografiyasida chop etildi.